



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-aprel
oylari*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 67-236-70-00*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 801 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 740 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 1 581,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 106,9 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 88,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 77,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 492,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 175,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,2 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1 581,3	106,9
Guliston sh.	577,4	107,8
Shirin sh.	20,6	104,4
Yangiyer sh.	138,1	106,6
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	103,0	106,0
Guliston	76,1	106,3
Mirzaobod	120,7	106,9
Oqoltin	74,9	105,0
Sardoba	62,8	106,6
Sayxunobod	57,9	105,0
Sirdaryo	299,3	107,1
Xovos	50,5	105,5


2024- yilning yanvar-aprel oylarida 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan viloyatning Guliston sh. (**107,8** %), Mirzaobod (**106,9** %) va Sirdaryo (**107,0** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-aprel)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar- aprel oylari uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, hududlar kesimida (foizda)




2024- yilning yanvar-aprel oylarida o'sish sur'ati **106,9** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda



Hajmi, mlrd. so'm



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 36,5 % bilan 577,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Shirin shahri 1,3 % bilan 20,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-aprel oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 492,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 9,4 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,4 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 23,0 % ga kamaydi va 88,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (100,0 %), Mirzaobod (98,5 %) va Oqoltin (98,9 %) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston sh. (11,5 %) va Sardoba (2,8 %), Yangiyer sh. (5,8 %), Sayxunobod (2,1 %) tumanlarida kuzatildi.


5,6 %



94,4 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-aprel holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 726,3 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 104,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (5 791,6 ming. so'm), Yangiyer shahri (2 870,4 ming. so'm) va Sirdaryo (2 178,5 ming. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-aprel), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	49,6	98,8
Guliston sh.	25,8	79,5
Shirin sh.	-	-
Yangiyer sh.	4,6	158,8
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	4,6	98,5
Guliston	2,4	193,8
Mirzaobod	-	-
Oqoltin	-	-
Sardoba	1,5	164,8
Sayxunobod	-	-
Sirdaryo	10,7	133,8
Xovos	-	-


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-aprel)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-aprel)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 175,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 113,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 49,6 mlrd. so'mni (98,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 125,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (120,1 %).













2024 - yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 49,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (21,9 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>21,9 mlrd. so'm</p>  <p>44,0 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>7,1 mlrd. so'm</p>  <p>14,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>5,1 mlrd. so'm</p>  <p>10,2 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>3,5 mlrd. so'm</p>  <p>7,1 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>3,6 mlrd. so'm</p>  <p>7,2 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>3,0 mlrd. so'm</p>  <p>6,0 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,4 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>1,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>1,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p> <p>0,9 %</p>

2024- yilning yanvar-aprel oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 125,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 103,4 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 15,3 mlrd. so'mni, otlar – 6,5 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>56,0 mlrd. so'm</p>  <p>44,5 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>22,0 mlrd. so'm</p>  <p>17,5 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>25,4 mlrd. so'm</p>  <p>20,2 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>12,2 mlrd. so'm</p>  <p>9,7 %</p>	<p>Otlar</p> <p>6,5 mlrd. so'm</p>  <p>5,2 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>3,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 628 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	50,8	106,8
Guliston sh.	24,6	110,5
Shirin sh.	1,0	103,7
Yangiyer sh.	6,9	103,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	1,9	103,2
Guliston	3,7	102,5
Mirzaobod	3,1	102,4
Oqoltin	1,3	102,5
Sardoba	1,1	119,9
Sayxunobod	1,5	101,7
Sirdaryo	4,7	103,5
Xovos	1,0	103,4

2024- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 50,8 mlrd. so‘mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Sirdaryo viloyati	164,3	100,0
Guliston sh.	45,1	27,6
Shirin sh.	0,4	0,2
Yangiyer sh.	3,1	1,9
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	0,7	0,4
Guliston	4,7	2,9
Mirzaobod	0,4	0,2
Oqoltin	54,2	33,0
Sardoba	2,0	1,2
Sayxunobod	0,9	0,5
Sirdaryo	52,4	31,9
Xovos	0,4	0,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (45,1 mlrd. so'm), Oqoltin (54,2 mlrd. so'm) va Sirdaryo (52,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-aprel oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 164,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,1 % ga oshdi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 159,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 53,9 %), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi 4,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 7,7 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 056,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 011,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,8 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 271 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 250 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga eng yirik korxonalar Guliston sh. (118,6), Yangiyer sh. (119,1), Shirin sh. (119,4) hamda Sayxunobod (128,5) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1 056,2	107,2
Guliston sh.	346,8	118,6
Shirin sh.	4,6	119,4
Yangiyer sh.	66,7	119,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	58,8	50,0
Guliston	17,4	84,3
Mirzaobod	46,9	102,2
Oqoltin	27,1	99,3
Sardoba	36,3	97,6
Sayxunobod	90,4	128,5
Sirdaryo	316,6	116,5
Xovos	44,6	104,4